

**SURUNKALI OSTRUKTIV BRONXITNING  
IMMUNKORREKSIYALOVCHI TERAPIYA DINAMIKASIDA IMMUN  
HIMOYANING XARAKTERI**

**Toshniyazova G , SamDTU,  
davolash fakulteti 406-gurux  
Ilmiy raxbar: 4-ichki kasalliklar kafedrası,  
dotsent, Xoljigitova M.B.**

**Kirish.** Surunkali obstruktiv bronxit tarqalganligi va tez-tez qaytalanib turishi tufayli boshqa kasalliklardan aloxida farq qiladi va dolzarb ahamiyatga ega.

**Tadqiqot maqsadi:** Surunkali obstruktiv bronxitni davolashda standart-kompleks davolash bilan birga immunomodulyator kversetinni qoʻshib tavsiya qilish va dinamikada immun tizim holatini baholash.

**Materiallar va usullar.** Shahar tibbiyot birlashmasida statsionar va ambulator davolangan, MKB 10 boʻyicha surunkali obstruktiv bronxit tashxisi qoʻyilgan 43 ta bemor, 21 ta sogʻlom guruxdagilar tanlab olingan. Bemorlar 117erme 11-30 yoshni tashkil qildi (oʻrtacha yosh 18,3). Ular 28 ta erkak va 15ta ayollardan iborat. Kasallik anamnezining oʻrtacha davomiyligi 5,5 +-0,45-yil. Nazorat guruxi 21ta sogʻlomlar, jumladan 15ta erkak va 6ta ayol, oʻrtacha 117erme 16,3. Tashqi nafas funksiyasini aniqlash «SPIROSIFT-5000» apparati bilan oʻtkazildi. Tekshirilganlarda 117ermen tizim holatini oʻrganish maqsadida 117ermen statusning asosiy miqdoriy koʻrsatkichlarini baholash uchun qon zardobida umumiy limfotsitlar, leykotsitlar va T-limfotsitlar subpopulyatsiyasi asosiy tarkibini: CD4+,CD8+,CD16 va CD23+,CD25 miqdori davolashgacha va davolashdan keyin aniqlandi. Qon zardobida limfotsitlarning subpopulyatsion tarkibini aniqlash usullari immunkompenet hujayralar fenotipi 117ermentati antitelolar yordamida aniqlandi. Immun tizimi holati CD-differensiallanuvchi va faollashgan antigenlar ekspressiyasi boʻyicha baholandi. («Sorbent», Moskva, RF mahsuloti) orqali Samarqand 117ermen skrining markazida oʻtkazildi. 20 ta 1gurux bemor standart davolash va 2 gurux 23ta bemor standart davolash bilan birga kversetin tavsiya qilindi. 2 ta guruxda xam 117ermen tizim holati oʻrganildi.

**Tadqiqot natijalari.** Bemorlarda klinik belgilar quyidagicha: yoʻtal 100%, balgʻam ajralishi koʻp 93%, balgʻam ajralishi kam 75,83, havo yetishmasligi 100%, intoksikatsiya belgilari 56,66%, xansirash 40,83% holatda kuzatildi. Surunkali obstruktiv bronxitda kversetin bilan immunokorreksiyalashdan keyingi klinik-immunologik siljishlar dinamikasi koʻrsatkichlari samadorligini oʻrgandik. Kversetin paketchada dozalangan preparat, 20 ta kasalga tavsiya qilindi. Preparat immunokorrigirlovchi, antioksidant taʼsir koʻrsatadi. Bir paketchadan ikki mahal

oʻn kun davomida berildi. Ikki xaftadan keyin yana qayta tekshirildi. Davolashdan oldin taqqoslash guruxi bilan solishtirganda xujayra immuniteti oʻzgarishlari oʻrtasida yaqqol farq borligini koʻrish mumkin. Limfoid hujayralarning subpopulyatsion tarkibini oʻrganishda oʻziga xos faollik va pasayishi va davolashdan keyin natijalarini koʻrish mumkin. Yalligʻlanishda birinchi oʻrinda leykotsitlar oshishi maʼlumki, taqqoslash guruxiga  $6,69 \pm 2,0$  qaraganda davolashgacha boʻlgan bemorlarda  $8,9 \pm 1,2$  balandligi va davolashdan keyin  $6,8 \pm 1,8$  samarali  $p < 0,02$  pasayganligini aytish mumkin. Cd3,+% normada  $51,6 \pm 1,1$ , davolashgacha  $44,22 \pm 0,5$ , davolashdan keyin  $45,3 \pm 0,9$  ( $p < 0,05$ ). Cd4,+%. Normada  $28 \pm 1,2$ , davolashgacha  $22 \pm 0,9$ , davolashdan keyin  $25 \pm 1,9$  ( $p < 0,05$ ). Cd8,+% normada  $22 \pm 0,9$ , davolashgacha  $18 \pm 0,6$ , davolashdan keyin  $21 \pm 0,8$  ( $p < 0,05$ ). Cd16,+% normada  $18 \pm 1,3$ , davolashgacha  $16,6 \pm 0,7$ , davolashdan keyin  $19 \pm 0,9$  ( $p < 0,05$ ). Qolgan subpopulyatsiyalarida sezilarli oʻzgarishlar kuzatilmadi. Kompleks davolashdan keyin hujayra immuniteti xalqasida ijobiy tomonga samaradorlik koʻrsatkichlari aniqlandi. Anʼanaviy davolanagan bemorlarda obstruksiya belgilari 9-10 kun davomida bartaraf etildi. Kompleks davolashda bu belgilar 6-7 kunlari yoʻqoldi.

**Xulosalar.** Korreksiyalashdan kutilayotgan natijalar: yuqori samaradorlik, bemorlarning kasalxonada davolanish kuni qisqarishi, bemor ahvolidning tez yaxshilanishi, oʻpka fizikal oʻzgarishlarining joyiga kelishi, bronxoobstruktiv sindromning bartaraf etilishi 14,3-54,8% koʻtarilishiga olib keladi.